

TALABALARNI FAVQULODDA VAZIYATLARDA TO‘G‘RI HARAKATLANISH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH JARAYONLARINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH TEXNOLOGIYASI

Mamadboev Shoxrux Baxodirjonovich

Namangan davlat universiteti Tayanch doktoranti

E-mail: mamadboyev@mail.ru

***Annotatsiya:** Mamlakatimizda yildan-yilga favqulodda vaziyatlar soni ortib borayotganligi tahlillar ko‘rsatmoqda. Keltirilgan holatlarda jabrlanganlar xattoki, vafot etganlar orasida talaba yoshlar bo‘lganligini ko‘rishimiz ham mumkindir. Yuqoridagilarni inobatga olib, talaba va yoshlar o‘rtasidagi bunday vaziyatlarni kamaytirish talbalarni favqulodda vaziyatlarda to‘g‘ri harakatlanish ko‘nikmalarini rivojlantirish, talabalarni favqulodda vaziyatlarda to‘g‘ri harakatlanishni boshqarish texnologiyasini takomillashtirishni tadqiq etish dolzarb masalalardan biriga aylanib borayotgani qayd etish mumkin. Demak, keltirilgan ma‘lumotlar asosida talabalarni favqulodda vaziyatlarda to‘g‘ri harakatlanish va boshqarishni taqazo etadi.*

***Kalit so‘zlar:** favqulodda vaziyatlar, pedagogik yondashuv, sel, to‘g‘ri harakat, motivatsiya, xavfsiz xulq-atvor.*

ORGANIZATION AND MANAGEMENT TECHNOLOGY OF THE DEVELOPMENT PROCESSES OF STUDENTS’ SKILLS FOR CORRECT ACTIONS IN EMERGENCY SITUATIONS

Mamadboev Shokhrux Bakhodirjonovich

Phd student Namangan state university

E-mail: mamadboyev@mail.ru

***Annotation:** Analyzes show that the number of emergencies in our country is increasing every year. In the mentioned cases, we can even see that among the victims, among the dead were young students. Taking into account the above, it can be noted that one of the topical issues is the reduction of such situations among students and young people, the development of students’ skills in emergency situations, and the improvement of student control technology in emergency situations. So, on the basis of the information provided, students are instructed on how to properly move and manage in emergency situations.*

***Key words:** emergency situations, pedagogical approach, flooding, correct action, motivation, safe behavior.*

KIRISH

Jahonda ta'lim amaliyotida favqulodda vaziyatlarni oldini olish, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan oqibatlarni minimallashtirish, xavfli vaziyatlarda tezkor harakat qilish yo'llarini aniq maqsadli va manzilli qo'llashga alohida e'tibor qaratib kelmoqda. Talabalarni tabiiy va texnogen xususiyatdagi favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakatlanish ko'nikmalarini rivojlantirish bugungi tahlikali zamonda ijtimoiy zarurat sifatida yondashilib kelinmoqda. Birlashgan Millatlar tashkilotining Tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish (UN Office for Disaster Risk Reduction (UNDRR)) bo'yicha Global baholash hisobotining (Global Assessment Report (GAR)) 2022 yil hisobotida "dunyoda tabiiy ofatlarning ta'siri geografialar va sektorlar bo'ylab tobora kuchayib borayotgani koronavirus kasalligi (COVID-19) pandemiyasi, iqlimni o'zgarishi va hududlardagi kuchli suv toshqinlari bir-biriga bog'langanligini ta'kidlanadi. Tabiiy ofatlar iqtisodiy yo'qotishlar, qashshoqlik va kabi xavfni keltirib chiqaradigan zaifliklar ekotizimlar va biosferalar qulash xavfi ostida bo'lgani kabi ortib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to'g'risida"gi 60-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 iyundagi "Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida mutaxassislar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 3030-sonli qarori [1], O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 9 sentyabrdagi 754-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 26 avgustdagi 515-sonli qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI:

Ilmiy tadqiqotlarda xavfli holatlarda to'g'ri harakatlanish va ularning oldini olishga oid ishlar keng o'rganilib, o'quv va faoliyat jarayonlardagi muammolarga to'xtalib o'tilgan.

Mamlakatimizda pedagog olimlaridan, S.I.Xusanova, X.M.Akramov., A.B.Nabiyev va boshqalarning ta'lim muassasalarini boshqarish, ta'lim jarayonlarini tashkil etish va boshqarish muammolari bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirganlar [5. 6. 7].

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan L.A.Sorokina, V.F.Kupetskova tadqiqot ishlarida favqulodda vaziyatlarda talabalarni harakat qilish ko'nimalari shakllantirish tatbiq etilgan [3. 4].

TADDIQOT METODOLOGIYASI.

Maqolada oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini baholash tizimi muhokama qilinadi. Uning asosiy tarkibiy omillari va qismlari tavsiflanadi. O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalarini reytingini aniqlash mezonlari tahlili qilindi va rivojlangan davlatlar mezonlari bilan solishtirildi. Oliy ta'lim sifatini baholash bo'yicha yondashuvlar o'rganildi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

“Aholini va hududlarni tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida”gi [1] va “Fuqaro muhofazasi to'g'risida”gi [2], O'zbekiston Respublikasi Qonunlarida aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlashni eng muhim vazifa sifatida belgilaydi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 iyundagi “Favqulodda vaziyatlarni oldini olish va ularni bartaraf etish tizimi samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlar to'g'risida”gi 5066-sonli Farmonida favqulodda vaziyatlarni oldini olishdagi bir qator muammolarga to'xtalib o'tilgan [3]. Jumladan, “... aholi va hududlarni tabiiy ofatlar va texnogen avariya xavfidan muhofaza qilish bo'yicha muammolarni hal qilishda respublikaning ilmiy-tadqiqot salohiyatidan amalda to'liq foydalanilmayotgani” va “... aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida mutaxassislar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimi zamonaviy talablarga javob bermasligi”dagi muammolarni keltirilgan [2].

Xorijiy tadqiqotchilar tomonidan favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakatlanish ko'nikmalarini rivojlantirishda bir qator tahlillar o'tkazgan. Jumladan, V.F.Kupetskova o'zining tadqiqotida umumta'lim muassasalarida kichik yoshdagi maktab o'quvchilariga xavfsiz xulq-atvor ko'nikmalarini rivojlantirishga e'tibor qaratgan. Kichik yoshdagi maktab o'quvchilarini maktabdan tashqari mashg'ulotlarda xavfsiz xulq-atvorni shakllantirishni 3 bosqichda amalga oshirishni tadqiq qilgan va modelini ishlab chiqqan:

1-bosqich-axborot, ya'ni kichik yoshdagi o'quvchilarni xavf-xatarlar tushunchasi, ularni oldini olish va bartaraf etish bo'yicha bilimga ega bo'lishlari;

2-bosqichda-motivatsion, xavfsiz xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirish uchun motivatsiya beriladi;

3-bosqichda-trening, xavfsiz xulq-atvor ko'nikmalarini qo'llash bo'yicha mashqlarni o'z ichiga olishni nazarda tutadi[3].

L.A.Sorokina o'zining tadqiqotida xavfli holatda to'g'ri harakatlanish ko'nikmalarini rivojlantirishda quyidagilarni amalga oshirgan:

Xavfsizlik ko'nikmalarini rivojlantirishda kompleks diagnostik baholash yani motivatsion-qiymat, kognitiv, operativ-faoliyat, tartibga soluvchi va refleksiv komponentlarini e'tibor qaratgan[4].

Shuningdek mamlakatimiz olimlari S.I.Xusanova tomonidan esa uzluksiz ta'limda xavfsiz tizimini shakllantirishga alohida e'tibor qaratgan[5].

Talabalarni favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda tinglovchilarni ta'lim jarayonida xavfsiz harakatlanishini tizimli rivojlantirish uchun ta'lim tizimini anglagan holda:

- talabalarni xavfsizligini ta'minlash ko'nikmalarini rivojlantirish tizimini aniqlash;
- talabalar xavfsizligini ta'minlash tizimini ta'lim maqsadlari mazmuni, vosita va metodlarni belgilab olish va rivojlantirish;
- talabalar favqulodda vaziyatlarda xavfsizligini ta'minlash ko'nikmasini rivojlantirish tizimini pedagogik shart-sharoitlarini o'rganish hamda takomillashtirish;
- OTM talabalarini xavfli vaziyatlarda xavfsizligini ta'minlash amaliyotini takomillashtirib borish uchun ilmiy asoslangan o'quv materiallar va qo'llanmalarni ishlab chiqish hamda pedagogik amaliyotga joriy etish dolzarb pedagogik muammo ekanligini ko'rishimiz kerak bo'ladi.

Albatta, yuqoridagi omillar favqulodda vaziyatlarda talabalarni va aholini xavflardan muhofazalaydi. Demak, talabalarni favqulodda vaziyatlarda ko'nikmalarini rivojlantirish natijasida, biz xavfli holatlarni yuzaga kelishini va yuz bergan holda esa talafatlar miqdorini kamaytirish erishishimiz mumkin bo'ladi.

XULOSALAR

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, talabalarni favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakatlanish ko'nikmalarini rivojlantirishda pedagogik metodlarni o'rni beqiyos. Pedagogik vositalar yordamida dars mashg'ulotlari, darsdan tashqari mashg'ulotlarda bevosita foydalanib kelinadi.

ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1999 й., 9-сон, 221-модда; Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами 2010 й., 37-сон, 316-модда; 2014 й., 4-сон, 45-модда; Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 25.12.2019 й., 03/19/597/4193-сон; *Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон*

2. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2000 й., 5-6-сон, 151-модда; Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон; 18.05.2022 й., 03/22/770/0424-сон. <https://lex.uz/docs/3223793>

3. Сорокина, Людмила Аркадьевна Формирование готовности подростков к безопасному поведению в повседневной жизни Тюмень-2010

4. Купецкова, Валерия Феликсовна “Формирование навыков безопасного поведения младших школьников в процессе внеурочной работы в общеобразовательном учреждении”. Пенза-2008

5. С.И.Хусанова “Узлуксиз таълим жараёнида ўқувчиларда ҳаёт хавфсизлигини таъминлаш муҳим педагогик муаммо сифатида” Педагогика ва психологияда инновациялар. 7 сон, 3 жилд Б-83-84.

6. Akramov, K. M. (2020). va Shohruh Bahodirjonovich Mamadboev.". Qurilish strukturasi yong'ingacha chidamli xususiyatlari". Osiyo ko'p o'lchovli tadqiqotlar jurnali (AJMR), 9, 415-419.

7. Botirjonovich, Nabiyeв Akramjon, and Mamadboyev Shokhruh Bakhodirjonovich. "Egamberdiyev Azizbek Akramjon ugli, Xaydarov Bunyod Malikboyevich." EDUCATIONAL AND DEVELOPING TASKS OF LABOR EDUCATION. Special Issue on Application of Science and Technological Advancements for Sustainable Development Published by Novateur Publication India's JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal: 24-27.

8. Mamadboev Sh.B. SOCIAL-PEDAGOGICAL PROBLEMS OF PREPARING STUDENTS TO ACT CORRECTLY IN EMERGENCY SITUATIONS "Экономика и социум" №12(103) 2022.